

## EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANI AMALGA OSHIRISHDA OILA VA TA'LIM MUASSASANING O'RNI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14903988>

**Zokirjonova Dilobarxon Zoirbek qizi**

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti,

Sanoat texnologiyalari va mexanika fakul'teti, 29-22-guruxi talabasi

### ANNOTATSIYA

*Maqolada ekologik ta'lim va tarbiyani amalga oshirishda oila va ta'lim muassasaning o'rni tahlil qilindi. Tabiatni sevish, undan to'g'ri va ongli ravishda foydalana biluvchini tarbiyalash ekologik tarbiya va madaniyatning asosi bo'lib, kishilarda tabiat oldida ma'suliyatni anglash malakasini hosil qiladi. Vatanni sevish, vatanparvarlik tabiatni sevishdan boshlanadi. Binobarin, o'quvchilarda tabiatga nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg'usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas. Insonni tabiat quchog'ida bo'lishi uni ruhan tetiklashtirib, mehnat qobiliyatini va individual faoliyatini oshiradi.*

**Kalit so'zlar:** ekologik ta'lim, tarbiya, oila, ta'lim muassasasi, maktabgacha ta'lim, mahalla, tabiat, yoshlar, yashil iqtisodiyot, strategiya.

### АННОТАЦИЯ

*В статье анализируется роль семьи и образовательных учреждений в реализации экологического образования и воспитания. Воспитание людей, любящих природу, умеющих правильно и осознанно ею пользоваться, является основой экологического образования и культуры, развивает у людей способность понимать ответственность по отношению к природе. Любовь к Родине, патриотизм начинается с любви к природе. Следовательно, невозможно воспитать учащихся в духе патриотизма, не привив им подлинную любовь к природе. Пребывание на лоне природы духовно обновляет человека, повышает его работоспособность и индивидуальную эффективность.*

**Ключевые слова:** экологическое образование, воспитание, семья, образовательное учреждение, дошкольное образование, соседство, природа, молодежь, зеленая экономика, стратегия.

### ABSTRACT

*The article analyzes the role of the family and educational institutions in the implementation of environmental education and upbringing. Education of people who love nature, who know how to use it correctly and consciously, is the basis of environmental education and culture, develops in people the ability to understand*

*responsibility towards nature. Love for the Motherland, patriotism begins with love for nature. Therefore, it is impossible to educate students in the spirit of patriotism without instilling in them a genuine love for nature. Staying in the bosom of nature spiritually renews a person, increases his efficiency and individual effectiveness.*

**Keywords:** *environmental education, upbringing, family, educational institution, preschool education, neighborhood, nature, youth, green economy, strategy.*

## **KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasini hayotga tadbiiq etish orqali iqtisodiyotning energiya va resurslar sarflanishini hajmini qisqartirish, ishlab chiqarishga tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi texnologiyalardan, texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish maqsadga muvofiqdir”. 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-son «2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «Yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilingan [1]. 2025-yil O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot va atrof-muhitni muhofaza qilish” yili deb ataldi. Albatta, bu bejiz emas. Tabiatning ekologik holatining buzilishi – tuproq, havo va suvning tiriklik uchun zararli moddalar bilan ifloslanishi, zaharlanishi, o‘simlik va hayvonlarning foydali turlarining kamayib ketishi, yangi shaharlarning paydo bo‘lishi, aholi sonining ko‘payishi, energiya, suv va oziq-ovqatga bo‘lgan talabning o‘sishi natijasida rivojlanish markazlarining tabiat ichkarisiga – o‘zlashtirilmagan joylariga kirib borishi insonning yashash muhitining tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli atrof-muhitni muhofaza qilish bu bir kichik mintaqaning emas, balki bir kata qit‘aning, undagi xalqlarning, davlatlarning xalqaro muammosiga aylanib qolmoqda. Masalan, Orol atrofidagi ekologik fojia butun Turkistonning emas, balki Eron-Turon tuprog‘ida joylashgan davlatlarning hamjihatligida hal bo‘ladigan muhim muammo bo‘lib qoldi [2, 66-b.].

Ekologik ta’lim va tarbiya bolani yoshligidan ongiga singdirilmas ekan, biz haqiqiy komil insonni shakllantira olmaymiz.

Maktabgacha ekologik ta’lim bolani 6-7 yoshgacha bo‘lgan davrini o‘z ichiga olib uni sog‘lom tug‘ilishi, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydigan, unda o‘qishga intilish hissini shakllanishiga qaratilishi kerak.

Sog‘lom avlod uchun birinchi navbatda oila juftligini to‘g‘ri shakllantirish kerak bu borada har ikkala tomonning rezus faktorlarining mos kelishi yoki kelmasligi sog‘lom avlod olishda muhim rol o‘ynashi alohida o‘rin tutadi [3, 126-b.].

Insonning rivojlanishi muhit ekologiyasiga, sifatli, yuqori, koloriyali, vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda yangi avlod dunyoga kelishda ekologik me'yorlarga rioya qilish muhimdir. Allomalar merosi orqali yoshlarni insonning tabiatga bo'lgan munosabati mavzularini tadqiqotchi G.K.Masharipovning ilmiy izlanishlarida yaqindan tanishish mumkin [4, 364 b.; 5, 144 b.; 6, 210 b.; 7, 160 b., 8, 242 b.].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Maktabgacha ekologik ta'lim tarbiya asosan oilada amalga oshadi, bu borada xalqimizning "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol asosida ish ko'rish maqsadga muvofiqdir. YOsh bolani jismonan va aqliy shakllanishida nafaqat og'zaki, balki ota-ona, aka-uka, qarindoshlarning shaxsiy faoliyati ham andoza bo'ladi. Chunki yaqinda dunyoga kelgan go'dak jismonan va aqliy jixatdan shakllanishi tez suratlar bilan har tomonlama amalga oshadi, ko'rgan, sezgan, eshitgan hodisalardan nusxa oladi. Bu narsalarni u dastlab ona va otadan oladi, chunki asosan ular bola atrofida ko'proq u bilan shug'ullanishadi. Shu bois maktabgacha ekologik ta'lim tarbiya dastlab ota-onadan, aka-ukadan, bog'cha tarbiyasidan boshlanadi. Bu davrda bolaga "Yuz marta aytgandan bir marta ko'rsatmoq afzal" degan shiorga rioya qilib, foydali o'simlik, hayvon, xarom, halol, yaxshi va yomon narsa va hodisalarni bolaga erinmasdan tushuntirib borish kerak. Ta'lim tizimidagi navbatdagi ekologik ta'lim maktab davrida amalga oshadi. Ekologik ta'lim tarbiya to'g'risida dastlabki tushunchalar boshlang'ich va o'rta maktabdan boshlanadi. Maktabda o'tiladigan nazariy ekologiya, biologiya, fanlari asosida o'qitilib, o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash, tashqi muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lib uni muhofaza qiluvchilar etib tarbiyalash ishiga yordam berishi kerak.

Ekologik ta'lim tarbiya quyidagi asosiy bo'limlarni o'z ichiga oladi.

a) O'quvchilarni tabiat go'zalliklarini sevish, ulardan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash.

b) O'quvchilarga maxsus ekologik bilim va tarbiya berib ularda bu soxada muayyan malaka hosil qilish.

v) O'quvchilarni tabiat in'omlaridan to'g'ri foydalanish ruhida tarbiyalash.

g) Ekologik o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish ruhida tarbiyalash.

d) O'quvchilarga ekologik madaniyatni, ma'naviyatimiz va tariximizdan kelib chiqqan holda bilim va tarbiya berish orqali singdirish.

Ma'naviy barkamol insonning shakllanishida bu jarayon asosan maktabgacha va maktab davrida shakllanadi. Buning uchun o'quvchi barcha fanlarni xususan, tabiiy fanlarni, tabiat qonunlarini chuqur o'zlashtirib olishi kerak [9, 38 b.].

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga borganda esa olingan bilimlarini to'ldirib, tabiatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar mexanizmlarini o'zi mutaxassis bo'layotgan soha bo'yicha yuz berayotgan ekologik holatlarini analiz qilib, tegishli xulosa chiqara bilishi kerak. Tabiatning normal hayoti uchun fuqarolik mas'uliyatini to'la anglashi ekologik ta'lim va tarbiyaning ifodasidir.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik ta'lim tarbiya masalasi pedagogika va psixologiya masalalarining eng muhim tarkibiy qismidir. Kishilarda tabiat qonunlariga to'la rioya qilish to'g'risida va bu sohada Vatan, xalq, davlat va kelajak avlod oldidagi burch tuyg'usi va mas'uliyat hissi hosil etilmasa, ularda to'la ekologik ong va tafakkur hosil bo'lmaydi.

Ekologik ong va tafakkurga ega bo'lgan har bir kishi o'z mehnat faoliyatida tabiatga me'yoridan ziyod ta'sir etish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko'rib, ongli ravishda ish tutadi. Tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini bilmaslik ekologiya bilimlaridan bexabar, go'yo tabiatda "O'z o'zidan beriladigan" ekologik muvozanatning mavjudligi, qandaydir "Yopiq ekologik tizim"ning borligi, tabiatni qaytadan tiklanishiga aralashmaslik to'g'risidagi tamoman zararli fikrlarning tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Ekologik tarbiya-ahlokiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Kishilarda ekologik ong va tafakkurni, ekologik dunyoqarashni hosil qilish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi. Hamma bosqichlarda ekologik ta'lim va tarbiyani talab etilgan darajada amalga oshirish uchun bu vazifani muhimligini va ma'suliyatini yaxshi bilgan yoshlarni tayyorlash zarur. Ekologik jihatdan bilimli va madaniyatli yoshlarni tarbiyalashda uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'lim tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yib sifatli olib borish asosiy mezon bo'lishi kerak [10, 27-b.].

To'g'ri rivojlanishga milliy qadriyatlarga tayanmasdan ham erishish mumkin. Yoki biz qadriyatlarga ko'proq bog'lanib qolmoqdamiz, qadriyatlarimiz esa bizni taraqqiyotimizga ayrim hollarda turtki berish o'rnida, halaqit ham qilmoqda deydiganlar topiladi. Bunday qarashlar qaysi jihati bilan to'g'ri kelmaydi, yoki uni qabul qilish qiyin degan savollar doimiy ravishda mavjud bo'ladi.

Milliy rivojlanishida har bir xalq tili, madaniy xususiyatlarini hisobga olib, qadriyatlariga befarq, loqayd qarasa va istagan «turmush tarzi», urf-odat, qadriyatlarini o'zi uchun qabul qilaversa, o'z taraqqiyot yo'lini yo'qotib qo'yadi. Bunga mustabid sovet davri tipik misoldir. SHuning uchun ham har qanday rivojlanish andozasini emas, o'ziga xos va mos rivojlanish yo'lini e'tirof etish milliy istiqloq g'oyasiga to'g'ri keladi. SHu ma'noda, milliy istiqloq g'oyasini xalqimizning yangi jamiyat qurish borasidagi harakat dasturi deyish mumkin.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: o'qish, o'rganishga havas uyg'otish; tabiatni asrab-avaylashga o'rgatish; kitobxonlikka qiziqtirish; ozodalik va salomatlik odobi; odob ko'nikmalarini paydo qilish; o'z hatti-harakati uchun mas'uliyatni tarbiyalash.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek oilalaridagi kitobga muhabbat, kitobni asrab-avaylab saqlash va kitobxonlik xalqimiz ma'naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etgan fazilatga aylangan. Chunki kishining o'zini-o'zi tarbiyalashida kitob ham bilim manbai, ham o'zingizni ko'rish, taqqoslash, taqlid qilish, munozara yuritish, bahslashishda ma'lum darajada ko'zgu vazifasini o'taydi. Kitobxonlik mushohada va mulohaza yuritish iqtidorini shakllantiradi, fikrni charxlaydi, teranlashtiradi. Ta'limdan tashqari ishlarda yoshlarni kitob mutola qilishga da'vat etish, ularning kitoblardan foydalanib o'z ustida ishlash imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonlarning er va uning boyliklari bilan aloqasi ming-ming yillar oldin boshlangan. Bu munosabatning ilk qadamlarida insonning katta landshaftlar – ekosistemalarga ta'siri chegaradan chiqmagan, sezilarli bo'lmagan. Texnikaning o'sishi bilan er osti qazilmalaridan foydaanishni boshlab yubordi. Bu jarayonlar talabini qondirish uchun juda kata maydonlardagi jo'ka, grab, zarang, qarag'ay o'rmonlari yo'qolib ketdi. Qalin o'rmonlar dashtga aylandi, u erlarni begona o'tlar bosdi.

Yoshlarning asosiy vazifalari – bu o'z hayotini saqlash, kelajak avlodini saqlab qolish uchun tabiiy sistemalarini buzmaslik, ifloslantirmaslik, zaharlanmasligi, tabiat bilan ittifoqda, uning qonunlarini inobatga olgan holda yashashi kerak.

Organik dunyo bir necha evolyusion rivojlanish davrlarini o'tgan, ya'ni:

1. Biologik moddalar aylanishi va biosferaning yuzaga kelishi.
2. Ko'p hujayrali organizmlarning paydo bo'lishi va hayotning siklik tuziishining murakkablashishi. Bu ikki holat biogenez deb aytiladi.
3. Evolyusion rivojlanishning uchinchi bosqichi – bu insonlar jamiyatining yuzaga kelishi va uning ta'sirida biosfera evolyusiyasining davom etishi va aqliy sfera – noosferaga aylanishi.

V.I.Vernadskiyning fikricha, XX asrda biosfera rivojlanib, fan rivoji va sotsial tuzum asosida noosfera yuzaga keladi. Inson tirik organizm, tirik moda va u biosferaning ma'lum funksiyasini bajaradi, buzilishida qatnashadi.

Biosferaning tabiiy qismi ekosfera, uni ong sferasi – noosferaga aylanishini tubandagicha izhlash mumkin, ya'ni: 1) inson evolyusiyasining boshlanish davrida u yashash uchun biosferadan kerakli hayotiy mahsulotlar oldi, qoldiqlarini biosferaga qaytaradi, undan esa boshqa organizmlar foydalanadi.

2) inson jamiyatining rivojlanishi bilan u tabiat qonunlarini inobatga olmay biosferaning turg'unligini ekologik buzishga kirishdi;

3) hozirgi kunda inson atrof-muhitga salbiy ta'sir qilganini tushunib etdi va tabiat qonunlari bilan hisoblashadigan, uning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanadigan bo'ldi;

4) biosferadan noosferaga o'tishda inson jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarni aql-idrok bilan boshqarishni boshladi;

5) faqat ma'lum maqsadlarga va aql-idrok bilan yo'naltirilgan inson faoliyatigina tabiat bilan jamiyatning uzoq vaqt garmonal rivojlanishiga olib kelishi mumkinligini angladi.

Har qanday tirik organizm, shu jumladan inson ham biosferaning biologik elementi, lekin, tabiatning muhofazasi – faqat insonning qo'lida, chunki, uning madaniyatsizligi tufayli tabiat muhofaza qilishga muhtoj bo'lib qoldi. Tabiat o'zini o'zi buzgan emas, buzmaydi ham. Uni inson buzdi va buzmoqda.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha ko'p miqdorda turli kimyoviy moddalar to'plangan. Ular tirik organizm tanasida oksidlanish, tiklanishi, parchalanishi va qo'shilish jarayonlarida organizmni genetik belgisini o'zgartiradi, ya'ni bolalar imajruh, qo'l-oyoqlari uzun-kalta yoki yo'q, ayollar homiladorligining buzilishi, kam qonlik, bola tashlash, bolalar o'limining ortishi, yurak-qon tomirlar, oshqozon, jigar, buyrak, rak, uyqusizlik kabi kasalliklar ko'payadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda pestitsidlarni qo'llash natijasida har yili 375 ming odam zaharlanadi, ulardan 10 mingdan ortig'i o'ladi.

Insonning tabiatga nisbatan turli salbiy faoliyatlariga qaramasdan oxirgi natija – turli ekosistemalarda ekologik va biologik turg'unlik rivojlanadi. Bu rivojlanish inson zakovati, uning ijobiy faoliyati mahsuloti sifatida yuzaga keladi:

1. Kesilgan daraxtlar, buzilgan erlarda daraxtzorlar va o'tloqzorlar tashkil etiladi.
2. Yo'qolish xavfida bo'lgan o'simlik va hayvon turlari muhofaza ostiga olinadi, ko'paytiriladi.
3. Ko'p qisqargan ekosistemalar, landshaftlar maydonlari tiklandi, kengaydi.
4. Tabiiy mahsuldorlik ortadi, tuproqning eroziyadan saqlash chora-tadbirlari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.
5. Biologik uslublar qo'llash yo'li bilan tuproqning fizikaviy-kimyoviy tarkibi, biologik xususiyatlari yaxshilanadi.

6. Tabiatga sanoatning kuchli ta'siri to'xtatiladi.

7. O'simlik va hayvonlarning ko'payishi va tarqalishi uchun tabiiy muhit tiklanadi, yaxshilanadi vash u yo'l bilan o'lik tabiat va tirik biologik sistema o'rtasidagi munosabatlarda ham turg'unlik yuzaga keladi.

8. O'simlik va hayvonlarning yashash joyi muhitiga bog'liq ekanligini inobatga olgan holda, ular populyasiyalarining tarkibi, miqdori, tuzilishi, o'zgarib turishi sabablarini o'rganib, ularning yaxshi rivojlanish chora-tadbirlari yaratiladi.

9. Tabiiy ekosistemalarda tirik organizmlarning o'z-o'zini boshqarib turishi, ularning soni, zichligi, turlarning xilma-xillik darajalari va mahsuldorligi doim nazorat ostida bo'ladi.

10. Turli tabiiy ofatlar tufayli buzilgan, o'zgargan sistemalarni tiklash chora-tadbirlari ko'rib, ekosistemalarning tabiiy holati, uni elementlari saqlanadi, tiklanadi.

11. Tabiiy sistemalar ichida va organizmlar o'rtasidagi turli biotik munosabatlar, ularning bir-biriga bolliqligi, turg'unligi o'zgarib turish sababari o'rganib boriladi, ekosistemalar ichida biotik munosabatlar har xil va murakkab bo'lganligi tufayli shu munosabatlarga ta'sir qiladigan omillar, biologik tushilishlar tahlil qilinadi.

Insonning tabiatga ta'sir qilishining boshlanishi bilan asta-sekin tabiiy yashash muhiti o'zgarib bordi, hattoki shimoliy qutblar, tundra, dunyo okeani o'rtasidagi orollar, tropik zona changalzorlari ham inson ta'siriga uchradi va o'zgardi.

### **XULOSA.**

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish shu kunning eng muhim ekologik muammosi hisoblanadi va bu muammo 6,5 milliard aholi hamda ular yashayotgan davlatlar manfaatini o'z ichiga qamrab oladi. Bu muammo hayotning barcha muammolaridan farq qilgan holda, Er yuzidagi jonzoqlar, shu jumladan, eng avvalo insonlar salomatligini saqlashni ko'zda tutadi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «Yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. - Toshkent, 2019 yil, 4 oktyabr, 4477-son O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>.
2. Sodiqova Sh.A., Rasulxo'jaeva M.A.. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. - Toshkent: «Fan va texnologiya», 2013. - 88 b.
3. Haydarova D. va boshqalar. Ekologiya o'qitish metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi», 2014, 220 b.
4. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun Akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. – Toshkent, Navro'z nashriyoti, 2019. - 364 b.

5. Masharipova G.K. Abu Ali ibn Sino ilmiy-falsafiy va ma'naviy merosining jamiyat hayotidagi o'rni. Monografiya. – Toshkent, Navro'z nashriyoti, 2020. – 144 b.
6. Masharipova G.K. O'rta asrning buyuk kashfiyotlari - xorazmlik matematiklarining ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalar. Monografiya. - Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2021. – 210 b.
7. Masharipova G.K. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi va falsafiy qarashlari. Monografiya. - Toshkent, Fan ziyosi, 2022. - 160 b.
8. Masharipova G.K. The Role Of The Development Of Civilization Of Natural Scientific, Socio-Philosophical And Spiritual Information Of Scientists Of The Khorezm Mamun Academy. Monography. - Taameer Publications LLC (Michigan, USA/ Hyderabad, India), 2024. - 242 p
9. To'xtaev A.S. Ekologiya. – Toshkent, O'qituvchi, 2001.
10. Ziyomammedov B. Ekologiya: tarix, nazariya va hozirgi zamon. – Toshkent, Mehnat, 1990.